

BOSHLANG'ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA «BILIM OLISH SIRLARI»  
MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH  
BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR

Madiyeva Umida Tashpulatovna  
*Toshkent viloyati Ōrta Chirchiq tumani*  
*54-õrta umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Bugungi kunda fan, madaniyat, axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta'limi rivojlantirish eng asosiy masalaga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan hamda bugungi kunda g'oyalari amaliyotga keng ko'lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O'zbekiston Respublikasining “Ta'lism to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lism jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalgalash oshirishi lozim. Chunonchi, mazkur jarayonning uchinchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar)da “... ta'lism muassasalarini moddiy resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmular, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan to'liq ta'minlash” kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etilmog'i lozim.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya'ni uzlusiz ta'lism tizimi xodimlari, pedagog-o'qituvchilar tomonidan zamonaviy ta'lism texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lism jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lism jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun tarbiya kirib bormagan biror soha yo'q, har bir fan, albatta, tarbiya bilan uzviy bog'liq. Ushbu fanga o'quvchini qiziqtirish, rejada berilgan mavzularni to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash pedagogning vazifasi sanaladi. Pedagog kutilayotgan natijaga erishish uchun avvalo darsni rejalashtirishi yoki loyihalashtirishi lozim bo'ladi. Darsni loyihalashtirishda quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz.

Pedagogik jarayonni loyihalashda:

1. Pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
2. Natijalarni oldindan ko'ra bilish;

3. Rejalashtirilgan faoliyatni amalgalash oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda o'qituvchining mustaqil, shu bilan birga o'quvchi bilan hankorlikda o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida loyihalashtirilgan faoliyati yetakchi o'rinni tutadi. Loyihalar predmet va uning yo'nalistigiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Hozir o'quvchilarni har bir darsda faol ishtiroy etishga undovchi noan'anaviy dars metodidan foydalaniyapti. Bu dars metodi hozirda turli joylarda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatyapti.

Ta’lim jarayonining samaradorligini taminlashda shartlarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega:

1.O‘qituvchilar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ta’lim amaliyotida faol qo’llanilishi;

2.Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’limi amaliyotida qo’llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo‘lish. U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- loyihani yaratish;
- o‘quvchilar faoliyatini tashxislash;
- pedagogik jarayonni tashkil etish;
- pedagogik jarayonning samarali kechishini ta’minlash.

Darsni qanday tashkil etish, unda qanday metodlardan va usullardan foydalanish o‘qituvchining ixtiyoriy yondashuviga bog‘liq, bunda unga aniq qolip berilmaydi. Demak, ko‘zlangan maqsadga erishmoqchi bo‘lgan pedagog darsni shunday tashkil etsinki, toki o‘quvchilar mavzuni qiyalmasdan tushunib olsin, fanga bo‘lgan qiziqishi yanada kuchaysin. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq, uning qo’llagan innovatsion texnologiyalariga bog‘liq.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosis qilish, shuningdek, talabalar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega.

Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

“Tarbiya” darsliklarida “role-model”, ya’ni “namuna keltirish” zamonaviy pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosda yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi.

Bu yil sinov tariqasida 1-9 sinfgacha bo‘lgan darslik ustida bitta ijodiy jamoa ishladi. Bu har bir sinf darsligi o‘rtasidagi tafovut va takrorlanishlarni oldini oldi va bir butun, izchillikdag‘ darslik yaratilishi ta’minlandi.

Darslik yorqin, rangli, illyustratsiyalarga boy va har bir bo‘limi o‘ziga xos fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta’minlangan. Har bir darslik uchun video, audio, media materiallar jamlashgan disk beriladi. Insonning kelajakda

muvaffaqiyatli inson bo‘lish eng avvalo to‘g‘ri maqsad qo‘yishga bog‘liq. Deyl Karnegi, Brayan Treysi kabi mashhur lektorning ta’limotiga ko‘ra, hayotda o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga erishishni o‘rganish ham aslida bir fan. “Tarbiya” fanining ahamiyatli jihat shuki, u bosqichma-bosqich bolada maqsad qo‘yish va unga intilish ko‘nikmasini shakllantirib boradi.

Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofikdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Ona tili va adabiyot darslarini o‘qitish pedagogdan ijodkorlikni talab qiladi. Avvalo mavzuni tushuntirishdan oldin o‘qituvchi uning murakkablik darajasini aniqlaydi, so‘ngra ushbu murakkablikni osonlashtiruvchi, o‘quvchiga yengillik yaratuvchi metodlarni ishlab chiqishi zarur. Quyida amaliyotda foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so‘z yuritamiz.

### Zakovat o`yini

Bu o`yinni o`tkazishda dastlab auditoriyani o`yinga moslashtirish lozim bo`ladi. O`yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o`quvchilar o`yinda ishtirok etish huquqiga ega bo`ladi. O`yin qatnashchilari 6-8 kishidan iborat bo`ladi. Qolgan o`quvchilar esa o`yinni tamoshabin sifatida kuzatib turishadi. O`yin uchun mo`ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo`yiladi. Guruh sardori savolni olib o`qituvchiga beradi. O`qituvchi savolni o`qib eshittiradi. Javobni aniklash uchun bir dakika vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o`yin ishtirokchilari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o`yinni asosan, yuqori sinfda o`tkazish tavsiya etiladi. Zakovat o`yinlarida asosan, o`rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

### 6X6X6

Mazkur metodlarning adabiy ta`lim jarayonida foydalanish mumkin bo`lganlaridan yana biri 6X6x6 metodidir. Bu metoddan adabiy asarlar ustida ishslashda foydalanishda adabiyot o`qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarni oqilonqa shakllantira bilish talab qilinadi. Bu metoda sinfdagi o`quvchilar oltita-oltitadan guruhlarga bo`linadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e`lon qilinadi, o`qituvchi guruhning a`zolarini almashtiradi. Yangi guruhda avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va o`z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan xulosalarini yangi guruhga bayon etadi. Yangi guruh a`zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o`rganadilar, unga o`z munosabatini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt ichida o`quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o`zlari tomonidan tahlil qilinadi va baholanadi.

### Baliq skeleti texnikasi

Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar yozilsa, pastki qismida esa ularning yechimiga doir so`zlar yozilib, misollar bilan izohlanadi.

### Debatlar

Debatlar – bu qarama-qarshi nuqtai-nazarlarning o`zaro bahsi (to`qnashuvi) bo`lib, u o`quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli masalalarni o`rganish va o`zlari haq ekanligiga boshqalarni ishontirishga o`rgatadi. Debatlar Qadimgi Gretsiyada yaratilganligi haqida nazariy ma`lumot beriladi.

Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo`lib, bunda jamoaning har bir a`zosi o`zining burch va majburiyatlariga ega bo`ladi, kim g`alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o`qituvchi belgilab beradi.O`quvchilar bilan debat o`tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak: Debatlar ko`p narsaga o`rgatadi (Chunki debat o`tkazishdan maqsad faqat g`alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir). Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati (Bu tamoyil debatning o`zagi bo`lib, noto`g`ri argument keltirish va savollarga javob berishda mantiqan noto`g`ri yo`ldan ketishning oldini oladi) . O`zaro hurmatni saqlash (Debat ishtirokchilarining shaxsiga qasddan teskari aloqaga kirishmaslik shart, o`zga o`quvchi tomonidan aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo`lsa, uning obro`sini to`kish maqsadga muvofiq emas. Chunki debat g`oyalarning to`qnashuvidan iborat).

Debatda 2 ta jamaoa ishtirok etadi. 1-jamaoa: Tasdiqlovchi tomon sifatida. 2-jamaoa: Qarama-qarshi yoki inkor etuvchi tomon sifatida. Jamoalardan so`zga chiquvchilar spikerlar deyiladi. T1, T2, T3-tasdiqlovchi tomon spikerlari. Q1, Q2, Q3-qarama-qarshi tomon spikerlari. Debatlarda quyidagi mahoratlar zarur bo`ladi: Tanqidiy tafakkur (tanqidiy fikr yuritish), Tadqiqiy malakalar, Tashkiliy malakalar, Tinglash va yozma qayd qilish va taqdim etish kabi ko`nikmalar shakllantiriladi.O`tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi tugallangan fikr shaklida bo`lishi kerak.Tasdiqlovchi tomon spikerlari hakamlarni o`z nuqtai-nazarlarining to`g`riligiga ishontirishga harakat qiladi (Masalan, Adabiyot – ko`ngil tarjimonи deya, fikrlar orqali mavzuni yakunlash). Inkor etuvchi tomon spikerlari tasdiqlovchi tomon nuqtai nazарining noto`g`ri ekanligiga hakamlarni ishontirishga harakat qilishi kerak (Adabiyot – yolg`on gapiradi ...). Argumentlash. Argumentlash orqali har ikkala tomon hakamlarni o`z nuqtai nazari to`g`ri ekanligiga ishontirish kerak. Argumentlar sust yoki kuchli, ishonarli bo`lishi mumkin. Shuningdek, debat ishtirokchilar o`z nuqtai nazarlarini mustahkamlovchi dalillarni (sitatalar, faktlarni, statistik ma`lumotlarni) taqdim qilishlari lozim.

FSMU texnologiyasi .Bu texnologiyadan foydalanishda o`qituvchi har bir o`quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog`oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to`ldirishni iltimos qiladi. Bunda:

**F**–fikringizni bayon eting

**S**–fikringiz bayoniga sabab ko`rsating;

**M**- ko`rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

**U**–fikringizni umumlashtiring.

O`qituvchi o`quvchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi.

Yakka tartibdagи ish tugagach, o`quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o`qituvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog`ozlarni tarqatadi.

Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog`ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo`yicha yozishlari taklif etiladi.

O`qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o`rtasida himoya qilishlarini so`raydi.

Mashg`ulot o`qituvchi tomonidan muammo bo`yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Har qanday metod yoki ushbu metodni qo'llash usullari avvalo o'quvchining mavzuni to'liq o'zlashtirishi uchun xizmat qilishi lozim. Bugungi kun pedagogining asosiy vazifasi metodlarni to'g'ri tanlay olishi, kutilgan natijaga qiyinchilik bilan oson usulda erishishidir.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tavsiyalardan dars mashg`ulotlarini olib borishda foydalansa kutilgan natijaga erishish samaradorligi oshadi, o`qituvchi va o'quvchi uchun murakkablik tug'dirmaydi, yengillik yaratadi deb o'ylaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - Toshkent: O'zbekiston. 1999.
3. 9-sinf Adabiyot darsligi. Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshev. O'zbekiston NMIU Toshkent 2019.
4. 6-sinf. Ona tili darsligi N. Mahmudov, A. Nurmonov A. Sobirov, D. Nabiyeva. «Tasvir» nashriyot uyi Toshkent – 2017
5. 6-sinf. Adabiyot darsligi. I qism (S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev, I qism. Toshkent «Ma'naviyat» 2017
6. K.Hoshimov, S. Nishanova, M. Inomova, R. Hasanov. Pedagogika tarixi. T., "O'qituvchi" 1996